

### **3. Namuna tahlili (5 daqiqa).**

Darslikning 20-21-betlaridagi rasmlarga qarang. Nimalarni ko'ryapsiz? (*Dengiz mushugi, koptokcha, qisqichbaqa, xonqizi*).

Bu applikatsiyalar qanday qismlardan yasalgan? (*Ikkiga buklangan doiralar*).

Bugun doiralardan qanday ishni bajarishni xohlaysiz?

O'quvchilar darslikda keltirilgan applikatsiya namunalaridan birini bajarishlari yoki o'zları yangi g'oya o'ylab topishlari mumkin, lekin ular albatta doira shaklidagi qismlardan iborat bo'lishi kerak. O'qituvchi ishni boshlashdan oldin reja tuzib, barcha kerakli materiallar va asboblarni tayyorlash zarurligini eslatadi.

### **4. Amaliy qism (25 daqiqa).**

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

### **5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).**

O'quvchilarda ikkita kartochka bor: ko'k va qizil. Ular dars boshida va oxirida o'z kayfiyatlariga mos ravishda kartochkani ko'rsatadilar. Bu holda biz mashg'ulot davomida o'quvchining hissiy holati qanday o'zgarishini kuzatib borishimiz mumkin.

#### **Kutilayotgan natijalar:**

- o'quvchilarni ko'zlangan natijaga erishish uchun o'z faoliyatlarini mustaqil ravishda rejalashtirish va amalga oshirishga o'rgatish;
- o'quvchilarda qo'l mehnati vositasida ijodiy g'oyalarni ro'yobga chiqarish qobiliyatini rivojlantirish.

## **9-DARS. PAXTA DISKLARIDAN BUYUMLAR YASAYMIZ**

#### **Dars maqsadlari:**

- o'quvchilarning qo'l bola materiallardan foydalanib, turli buyumlar yasash imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;
- paxta disklar yordamida applikatsiya yaratish ko'nikmasini shakllantirish;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

**Kerakli materiallar:** karton, qaychi, yelim, qalamlar, paxta disklar, flomaster qalamlar, rangli qog'oz, naycha, darslik, buyum namunasi.

### **1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

### **2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi o'quvchilarga bugungi darsda qaysi material bilan ishlashlarini so'z tavsifi orqali kim tezroq topishi bo'yicha o'yin taklif qiladi. O'qituvchi bu material haqida bir nechta faktlarni aytadi:

- 1) ko'pincha yumaloq shaklda bo'ladi;
- 2) bu gigiyena vositasi hisoblanadi;
- 3) presslangan paxtadan tayyorlanadi;

To'g'ri, bugun darsda sizlar ijodiy ish - paxta disklar bilan aplikatsiya tayyorlashingiz kerak bo'ladi.

### **3. Namuna tahlili (5 daqiqa).**

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Darslikning 22-23-sahifalaridagi rasmlarga qarang. Nimalarни ko'ryapsizlar? (*Mushuk, laylak, pandalar*).
2. Bu buyumlar nimadan tayyorlangan? (*Paxta disklaridan*).
3. Bugun paxta disklaridan qanday ish tayyorlashni xohlaysizlar?
4. O'qituvchi ishni boshlashdan oldin reja tuzish va barcha kerakli materiallar hamda asbob-uskunalarini tayyorlab qo'yish zarurligini eslatadi.

### **4. Amaliy qism (25 daqiqa).**

O'quvchilar darslikda taqdim etilgan aplikatsiya variantlaridan birini bajarishlari yoki o'zlarining ijodiy ishlarini yaratishlari mumkin.

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

### **5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).**

1. Darsdan nimani kutgan edingiz va qanday natijaga erishdingiz?
2. Darsning qaysi bosqichlarini eng samarali deb hisoblaysiz va nima sababdan?
3. Qaysi voqealar (harakatlar, fikrlar va hokazo) sizda eng kuchli taassurot qoldirdi?
4. Bunday turdagи amaliy topshiriqning foydasi bo'ldimi?

### **Kutilayotgan natijalar:**

- o'quvchilarni ko'zlangan natijaga erishish uchun o'z faoliyatlarini mustaqil ravishda rejalashtirish va amalga oshirishga o'rgatish;
- o'quvchilarda qo'l mehnati vositasida ijodiy g'oyalarni ro'yobga chiqarish qobiliyatini rivojlantirish.

## **10-DARS. TOVUS**

### **Dars maqsadlari:**

- qog'ozdan turli shakldagi qismlarni qirqish, bukish va yelimlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- andoza bilan ishlash mahoratini oshirish;
- ko'z bilan chandalash, belgilangan vazifaga muvofiq o'z faoliyatini rejalashtirish, algoritm bo'yicha harakatlarni bajarish qobiliyatini takomillashtirish.

**Kerakli materiallar:** rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, buyum namunasi.

### **1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

### **2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Qaysi biringiz tovusni ko'rgan?
2. U qanday qush? (*Katta, chiroylı*).
3. Tovusning dumi qanday? (*Katta, yorqin, rang-barang*).

O'qituvchi bugungi darsning maqsadi "Tovus" mavzusida hajmli aplikatsiya tayyorlash ekanligini ma'lum qiladi.

### **3. Namuna tahlili (5 daqiqa).**

*Darsning bu qismi odatdagи tuzilish bo'yicha o'tkaziladi. Darslikda yordam sifatida o'quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari uchun video yo'riqnomasi berilgan.*

Reja tuzish va shakllarni tayyorlash uchun asosiy jihatlar:

-barcha tasmalar bir xil kenglik va uzunlikda bo'lishi shart (buning uchun chizg'ich va qalam yordamida belgilash kerak, tasmalarning kengligi 1 cm bo'lishi lozim);